

YANGI O'ZBEKISTONNING IBRATLI OILASI

Suyunova Marhabo Murod qizi

Qarshi Davlat Universiteti Ingliz filologiyasi fakulteti Xorijiy til va adabiyot (Ingliz tili) yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Anatatsiya: *Bilamizki, yurtimizda oila muqaddas va eng katta qo'rg'on sifatida e'zozlanib kelinadi, chunki oila atalmish qo'rg'onda biz kamol topib rivojlanamiz va jamiyat uchun kerakli farzandlari bo'lib Vatan ravnaqiga o'z hissamizni qo'shamiz. Oilada mehr oqibat tuyg'ulari tinchlik, farovonlik, oiladagi samimiy qarashlar, milliy hamisha ulug'lanib kelinadi. Shu mo'jizaviy dargohda barcha ezgu fazilatlar - mujjasam.*

Kalit so'zlar: *Baxtiyor oila, baxt kaliti, mehr oqibat tuyg'usi, oiladagi samimiy qarashlar,*

"Eng katta baxt, men buni ming marta qaytarishdan charchamayman, oilamiz tinch bo'lsin! Oila kichik Vatan, oila tinch bo'lsa, baxtli bo'lsa, Vatan tinch bo'ladi.

Shavkat Mirziyoyev

Bugungi shiddat bilan o'zgarib borayotgan globallashuv davriga kelib O'zbekiston o'z istiqboli va kelajagini, oilani rivojlantirishda, uni e'zozlashda, uni hurmat qilishda tarixiy an'analarimiz va qadriyatlarimizga suyangan holda olib borishimiz kerakligini oldiga ulkan maqsad qilib qo'ymoqda.

Tarixdan ma'lumki, ilmiy-madaniy merosimiz, qadimiy urf-odatlarimizdan ayonki har qaysi makon va zamonda oila biz uchun muqaddas qadriyat sanalgan. "Xalq so'zi"da shunday jumlar keltirilgan. "Binobarin, tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy, ruhiy-axloqiy, iqtisodiy-huquqiy munosabatlarga asoslangan ijtimoiy birlik hisoblanmish oila qanchalik mustahkam bo'lsa, jamiyat ham shunchalik barqaror taraqqiy etishini ajdodlarimiz juda yaxshi anglashgan".

Bunga haqiqatda ota-bobolarimizning oilaga teran nazar bilan qaraganligidan dalolat beradi. Buyuk bobokalonlarimiz Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yugnakiy, Kaykovusdan tortib Beruniy, Ibn Sino, Forobiy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek va boshqa bobolarimiz o'z asarlarida oilaviy masalalar jumladan oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, bola tarbiyasida ota-ona, bobo-buvilarning o'rni shu kabi, mukammal qadriyatlarni, ulug'vor qilishda, komil insonni tarbiyalashda, bu muhim masalalardan biri oilaga alohida yondashish va pand-nasihat o'gitlarini berib ketgan. Yurtimiz rahbarining bugungi kunda "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan o'zgartirish va takomillashtirish" to'g'risidagi chora tadbirlar farmoni va "Oila ilmiy-amaliy" instituti tashkil etildi. Bularni barchasining negizida oila mustahkamligi yotadi.



"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



"Yangi O'zbekistonning ibratli oilasi" shu omillarga kuchli e'tibor qaratishi bu omillardan o'zini ogoh qilishi, yiroq tutishi lozim:

Psixologik omil - oiladagi doimiy nizolar, ota-onalarning yosh er-xotin hayotiga aralashishlari, yosh er-xotinlarni begonalashtirib qo'yish, bir-biriga befarqlik;

Ijtimoiy omil - ichkilikbozlik, farzandsizlik, er yoki xotinning salomatligi yaxshi emasligi;

Ma'naviy - axloqiy omil - er-xotindan birining uzoq vaqt davomidagi nikohidan tashqari aloqalari;

Iqtisodiy omil - turarjoy sharoitlarining qoniqarli emasligi, moddiy yetishmovchilik, ishsizlik, erning oilani ta'minlamasligi, mehnat migranti sifatida chet-elga ketgan er-xotindan birining oilasi bilan aloqasi uzilganligi, qarzlarni uzolmaslik;

Xulosa qiladigan bo'lsak, "Yangi O'zbekistonning ibratli oilasi" shu sifatlarga jamlangan bo'lishi oila atalmish muqaddas dargoh ostonasidan xatlayotgan har bir yosh oila muqaddas qo'rgon, unga ham iqtisodiy, ham ma'naviy, ham huquqiy, ham ma'nan, ham ruhiy va diniy-ma'rifiy tomondan tayyor bo'lgan holda qadam qo'yishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf aytganlaridek: Har bir inson oila muhitida kamolga year ekan oilaning barqarorligi, mustahkamligi va faravonligi jamiyat taraqqiyotining eng asosiy shartlaridir. Ya'ni bu qarashlar bilan siz oilada, ham jamiyatda ham o'z obro'yingizni saqlab turasiz: odamlarga yoqishning oltin qoidasi jumlasida:

1-qoida: Odamlar bilan yaxshi munosabatda bo'ling.

2-qoida: Tabbasumni darig' tutmang.

3-qoida: Yodingizda bo'lsin: har bir odam uchun, har bir doim eng yoqimli eshitiladigan so'z - uning o'z ismidir.

4-qoida: Sabrli tinglovchi bo'ling, odamlarning o'zlari haqida oddiyroq gapirishmariga imkon bering.

5-qoida: Ko'proq suhbatdoshingizni qiziqtiradigan narsalar haqida gapiring.

6-qoida: Suhbatdoshingizni qadr-qimmatini yuqori tutishingiz muomalangizdan bilinib tursin.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, ibratli oila bo'lishda har bir so'zingiz, dunyo qarashingiz hamda insonlarga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lishingiz ahamiyatli hisoblanadi. Oilalarimizning mustahkamligi, baxtiyorligi barchamiz uchun zarurdir. Shuning uchun ham har birimiz ushbu ahamiyatli ishga o'zi hissamizni qo'shishimiz lozim.

Alloh taolo barcha oilalarimizni va ularning barcha a'zolarini baxtiyor bo'lishlarida o'zi yordamchi bo'lsin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. "Baxtiyor oila"
2. Deyl Karnegi. "Muomala sirlari"

